



## SUV OMBORLARI VA ULARNING VAZIFASI

**Axmedova Farzonabegim Saydullo qizi**

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590530>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Suv zahirasi, yopiq suv ombori, ochiq suv ombori, dambali ombor, to'g'onli ombor, gir aylana damba, yarimkovlama damba, meyoriy dimlanish, ichki suv sarfi, foydasiz hajm, sath, bug'lanish.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mavjud suv omborlarining geografik jihatidan tuzilishi, ularning meliroativ holati, suv bug'lanishi, suv saqlanishi, suv sarfi kabi holatlar yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot ishlari, qolaversa, mamlakatimizda joylashgan ochiq va yopiq suv omborlarining turli tamoyillar asosida bunyod etilgan dambali hamda to'g'onli suv omborlari haqida fikr yuritilgan.*

Ma'lum bir geografik hududda suv zahiralarining umumiy potinsial vazifalarini bajaradigan suv omborlarining tashkiliy namunaviy joylashishi bu albatta maqsadga muvofiqdir. Bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasab etayotgani hech birimizga sir emas. Bugungi kunda mamlakatimizda joylashgan barcha suv omborlarining statistik ma'lumotlari bilan birgalikda ularning suv sig'imi, joylashish tartibi, bug'lanish darajasi va aholi yashash punktlaridan ma'lum bir geografik uzoq masofalarda joylashgan

ekanligi umuminsoniy qadryatlar bilan chambarchas bog'liqdir". [1] Milliy zahiralarimiz safiga kiruvchi suv omborlarining tuzilish tarkibi, saqlanish darajasi va aholiga yetkazib berish – ularning barchasi alohida mas'uliyat kasb etadi.

Suv omborlarining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilish tarkibi haqida so'z ketganda quyidagicha tasniflashga sabab bo'ladi:

- suv omborlari haqida umumiy ma'lumotlar;
- suv omborlarining tuzilish va joylashish geografiyasi;
- suv omborlarining umumshakliy turlarining mavjud ekanligi;
- suv omborlarining tarkibiy ko'rsatkichlariga hamohang tarzda asosiy ko'rsatkichlari;



- mavjud suv omborlarining mutaxasis tomonidan tasniflanishi;  
- suv omborlarida suv sathining ma'lum bir tartib qoidalarga solingan ekanligi;

- doimiy ravishda suv muvozanatini nazorat qilishning dasturiy – amaliy shakllari va boshqalar.

„O'rta Osiyo davlatlari hududidagi mavjud suv omborlari.

Suv ombori	Daryo	Suv sig'imi. Mln.m 2	Maydoni, Km	O'rtacha chuqurligi
Taxtag'ul	Norin	195000	284,0	68,7
Rogun	Vaxsh	124000	160,0	77,5
Norak	Amudaryo	10500	98,0	107,0
Tuyamo'yin	Sirdaryo	7300	790,0	9,2
Qayroqqum	Sirdaryo	5700	900,0	7,9
Chorbog'	Chirchiq	4200	513,0	8,2
Andijon	Qoradaryo	2000	40,3	50,0
Tolimarjon	Amudaryo	1750	60,0	29,1
To'dako'l	Zarafshon	2530	77,4	19,8
Kattaqo'rg'on	Zarafshon	875	225,0	3,8

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo yerlaridan yanada ko'proq baliq ovlash maqsadida irrigatsiya shahobchalarini ta'mirlash va yangilarini qurishga alohida e'tibor berdi. 1910- 1911 yillarda Turkmaniston hududida Murg'ob daryosida Murg'ob va Yo'lo'tan suv omborlari qurildi". [2.]

Bugungi kunda ham O'zbekiston Respublikasi hududida ham suv omborlari

va ularning tabiiy ijtimoiy holatini o'rganish, mavjud suv omborlarini qayta rekonstruksiya qilish bilan birgalikda, aholi talab doirasiga qarab yangi suv omborlarini bunyod etish masalalari bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimiz hududida o'tgan asrning birinchi yarmida bir necha suv omborlarining bunyod etilishi aholi talab darajalarining qondirishi nuqtai nazaridan Zarafshon vodiysida Kttaqo'rg'on nomli,



Kosonsoy vodiysida Kosonsoy nomli va boshqa suv omborlarining bunyod etilishi aholi ehtiyojlarining qondirilishida o'ziga xos manbaa bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Suv omborlarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z ketganda mavjud suv omborlarining tuzilish tarkibi jihatdan ularni ikki turga ajratish mumkin:

- Yopiq suv omborlari;
- Ochiq suv omborlari;

Suv omborlarining tuzilishi, suv saqlanish texnikasi haqida ilmiy jamoatchilik ahli bilan birgalikda aholi ham suv omborlarini yanada sifatini oshirishda fikr va mulohazalar bildirishlari mumkin. Bunda „yopiq suv omboriga suv saqlanadigan katta- kichik idishlar, rezervuarlar kiradi. Bunday suv omborlari temirdan, temir-betondan, tosh va boshqa materiallardan quriladi. Ular oqimni kunlar, hafta, oy ba'zan mavsumlar bo'yicha boshqarishga mo'ljallanadi. O'lkamizda juda qadimdan mavjud bo'lgan sardobalarni ham anashunday suv omborlari tipiga kiritish mumkin". [3]

O'lkada mavjud suv omborlari va ularda saqlanayotgan suvlarni turlarga bo'lib qaraydigan bo'lsak yopiq suv omborlaridan farqli ravishda ochiq suv omborlari va ularning tasnifi nisbatan farq qiladi. Ular quyidagicha tamoyil asosida farqlanadi:

1. Dambali suv omborlari;
2. To'g'onli suv omborlari.

Suv omborlari va ularning vazifasi va tarkibiy tuzilishi jihatidan farq qiluvchi omborlar ma'lum bir reja asosida prins va

maqsadlarga yo'naltirilgan holda quriladi. Jumladan: yopiq suv omborlari va ochiq suv omborlari. Bularning har ikkisi ham ma'lum bir maqsad yo'lida, qolaversa joylashgan hududiy geografik maskaniga qarab bunyod etilgan deyish mumkin. Bundan tashqari har ikki toifaning tarkibiy qismlari ham mavjud bo'lib, ular:

- Bir tomonlama damba;
- Gir aylana damba;
- Yarim kovlangan damba

Kabi toifalarga ham bo'linadi.

„Suv omborining asosiy ko'rsatkichlari ikki yo'nalishda belgilanadi:

1. Suv omborlarining o'lchasmlarini xarakterlovchi parametrlar;
2. Suv omborlaridan foydalanish rejimini aniqlaydigan parametrlar.

Birinchi turdagi, ya'ni suv omborlarining o'lchamlarini xarakterlaydigan parametrlar quyidagilardan iborat:

A) Meyyoriy dimlanish sathi (MDS);

B) Foydasiz hajm sathi (FXS);

C) Ishchi suv sathi (ISS)

Meyyoriy dimlanish shunday sathki, suv ombori shu sathgacha to'ldirilganda to'g'on unda to'plangan suvni uzoq vaqt ziyonsiz ushlab tura oladi". [4]

Suv omborlarida suv balansining meyoriy nazoratda turishi, qolaversa, suv omborlarining harorat rejimi, sarflanuvchi elementlar rejimi hamda to'yintiruvchi elementlar guruhining ham mavjud ekanligi bu sohada mavjud olib borilayotgan ishlar va ko'nikmalardan dalolat beribgina qolmasdan kishini quvontiradi.



„Suv omborining harorat rejimi ikki qismga bo'linib, ya'ni suv yuzasi va chuiqurlik bo'yicha o'rghanish qulay, Dastlab, suv yuzasi harorati ustida to'xtalib o'tamiz. Buning uchun O'zbekistondagi ayrim suv omborlari harorat rejimining yil davomida o'zgarishini tahlil qilish lozim". [5]

Xulosa qilib aytganda, suv omborlarining tashkil etilishi va ularning ijtimoiy xalq hayotidagi o'ring mohiyatini osgirish, suv omborlarining geografik holati, suv

saqlanishi, suv bug'lanishi, hayvonot dunyosi, qolaversa, umummilliy zahiar sifatida ma'lum bir tartib qoidalarga asoslanga holda saqlanishi bugungi kun ahamiyatini oshiradi. Suv omborlaridagi vaziyatning muntazam nazoratda saqlanishi, uning mileriotiv holatining uzviyligi, suv sarfining saqlanuvchi elementar guruh asosida sarflanuvchi elementlar hisobiga bog'liq ekanligi muhim ahamiyat kasab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.R.Raulov, F.X.Hikmatov, D.P. Aytboev „Gidrologiya asoslari" Toshkent „Universitet" 2003.
2. Xikmatov Fazliddin, Aytbayev Daulrtbay Perdebayevich, Adenbayev Baxtiyor Yembergenovich, Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich „Gidrologiyaga kirish" Toshkent – 2017.
3. A.X. Juliyev, A. Soatov, R. Yusupov „Geologiya asoslari" (o'quv qo'llanma) Toshkent – 200.
4. B.T. Toshmuhammedov „Umumiy geologiya" „Noshir" Toshkent – 2011.
5. P.Baratov, N.B. Sultanova „Umumiy yer bilimi" Toshkent – 2018.